

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJITI DA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusubovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Matyakubova Surayyo Abdullayevna-
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti
E-mail: matyokubovasurayyo7@gmail.com

OGAHINYING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670113>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr Xorazm adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan Muhammad Rizo Ogahiy asarlaridagi qo'shma fe'llar sinonimiyasining leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Qo'shma fe'llarning nutqdagi ifoda imkoniyatlari, ularning sinonimik guruhlari, uslubiy boylikni ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, Ogahiyning individual uslubidagi ma'naviy-estetik yuklamalari yoritilgan. Maqolada Ogahiy asarlaridan tanlab olingan qo'shma fe'l namunalari tahlil qilinib, ularning semantik nozikliklari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: qo'shma fe'l, sinonim, Ogahiy, leksik-semantik guruh, uslub, semantik farqlanish.

Матякубова Сурайё Абдуллаевна-
Докторант Хорезмской академии Мамуна

СИНОНИМИЯ СОСТАВНЫХ ГЛАГОЛОВ В ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ОГАХИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется синонимия составных глаголов в произведениях Мухаммада Ризы Огахий, одного из выдающихся представителей узбекской литературы XIX века. Рассматриваются лексико-семантические характеристики составных глаголов, их синонимические группы и стильовое богатство. В статье проанализированы примеры составных глаголов, приведенные из произведений Огахий, раскрываются их семантические тонкости и особенности употребления⁸.

Ключевые слова. составные глаголы, синонимия, Огахи, лексико-семантическая группа, стиль, семантические различия.

Matyakubova Surayyo Abdullayevna-
Doctoral student at the Khorezm Mamun Academy

SYNONYMY OF COMPOUND VERBS IN OGHIY'S HISTORICAL WORKS

ABSTRACT

This article analyzes the synonymy of compound verbs in the works of Muhammad Rizo Ogahiy from a linguistic perspective. It explores the semantic nuances, lexical components, contextual usage, and stylistic functions of these verb constructions. Special attention is given to the diversity

of meanings and stylistic variations of compound verbs typical of Ogahiy's language. The study highlights the role of compound verb synonymy in the development of the literary language.

Keywords: Ogahiy, compound verb, synonymy, semantics, style, lexical unit, context.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Mumtoz o'zbek adabiyoti va tarixnavisligining yirik namoyandalardan biri Muhammad Rizo Ogahiy o'zining rang-barang ijodi bilan keyingi avlodlar uchun boy ma'naviy meros qoldirgan. Uning lirik she'riyati bilan bir qatorda Xorazm xonligi tarixiga oid tarixiy asarlari ham o'zbek nasri taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Bu asarlar nafaqat tarixiy voqealarni aks ettirishi, balki til xususiyatlari, xususan, o'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlarini o'rganish uchun ham qimmatli manba hisoblanadi.

Ogahiy asarlari tili, xususan, uning nasri bir tomondan xalq tiliga yaqinlashish tendensiyalarini o'zida mujassam etsa, ikkinchi tomondan, mumtoz adabiy tilning shakllanishi va taraqqiyotiga xos bo'lgan qadimiy shakllarni, arabiy-forsiy so'z va iboralarni ham keng qo'llagan. Uning tarixiy asarlarida qo'shma fe'llarning faol qo'llangani diqqatga sazovordir. Qo'shma fe'llar o'zbek tilida harakat-holatni ifodalashning keng tarqalgan vositalaridan biri bo'lib, ularning sinonimiyasi tilning ifoda imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Mazkur maqolada Ogahiyning tarixiy asaridan keltirilgan kichik parcha misolida qo'shma fe'llar sinonimiyasi holatlari tahlil qilinadi. Maqsad ushbu matnda uchraydigan qo'shma fe'llarning sinonimik munosabatlarini aniqlash, ularning ma'noviy yaqinligi va farqlarini yoritish hamda shoir (tarixchi) uslubida bu sinonimlarning qo'llanish xususiyatlarini ko'rsatishdan iborat.

Ogahiy tarixiy asarlari murakkab sintaktik tuzilishga ega bo'lgan nasr namunasidir. Unda ko'plab qo'shma fe'llar ishlatilgan bo'lib, ular orasida ma'noviy yaqinlik yoki to'liq sinonimiya holatlari kuzatiladi. Eng ko'p uchraydigan qo'shma fe'l komponentlari qatoriga *qilmoq*, *etmoq*, *bo'lmoq*, *aylamoq*, *bermoq*, *olmoq*, *kelmoq*, *topmoq*, *ko'rmoq*/*ko'rguzmoq*, *surmoq*, *solmoq*, *tuzmoq*, *yetkurmoq* kabi fe'llar kiradi. Tilshunos olim Madvaliev ta'kidlaganidek, qo'shma fe'llar tilning ekspressivlik darajasini oshiradi. [3, 67-bet] Professor Begmatov esa distant holatdagi fe'llarni matnning emotsional va uslubiy boyligining belgilovchisi sifatida ko'rsatadi. [2,37-bet]

Tadqiqotda Ogahiy asarlaridan tanlab olingan qo'shma fe'l namunalari, ularning semantik nozikliklari va sinonimik guruhlari analitik usul yordamida tadqiq qilinadi. Leksik-semantik tahlil yordamida qo'shma fe'llarning nutqdagi o'rni va ularning uslubiy boyligni ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatilib o'tiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Quyida matndagi ayrim sinonimik qatorlar va ularning qo'llanishi ko'rib chiqiladi:

1. *Qilmoq/etmoq/aylamoq* komponentli qo'shma fe'llar sinonimiyasi:

Bu uch fe'l klassik o'zbek tilida ko'pincha bir-birining o'rnini bosuvchi universal komponentlar sifatida qo'shma fe'llar yasashda qatnashgan. Matnda ham bu holatni kuzatish mumkin:

sa'y etmoq – intilmoq. Ogahiy bu harakat fe'li natijalarini bir necha fe'l bilan ma'nan bog'laydi: “*oz chog'da ul miqdor fazl-u hunar anvoyin hosil qildikim, barcha zamon fuzalosig'a va jahon hunarmandlarig'a rojih-u foyiq keldi. Va ul masobada donishu hikmat daqoyiqin dasti tasarrufig'a kirguzdikim, Arastu-yu Aflotun aning oldida tifli abjadxondek ajzu inkisor qonunin za'fu iztiror dostonida tuzdi. Xususan, she'r va tavorix ulumida andoq mahorat va qudrat hosil qildikim, fuzaloyi diqqatparvar o'z qusurig'a e'tirof ko'rguzub, shogirdlik maqomig'a keldi.*” [1, 9-bet]

xazar qilmoq (aybdin aylab xazar qil, Ogahiy) – saqlanmoq, ehtiyot bo'lmoq ma'nosida. (32-bet)

tamanno aylamak (O'zga kom andin tamanno aylasmankim) – tilamoq, orzu qilmoq, so'ramoq ma'nosida. (117-bet)

ayon etmoq (“*Va goho karami zoti muqtazosi bila saxovat masnadida mutamakkin bo'lub, barcha mulozimlar va fuqaro va masokinga andoq siymoshlig' ayon etar erdikim,*..”) – ko'rsatmoq, namoyon qilmoq ma'nosida. (69-bet)

muborak bodliq aylamoq fe'li o'z mazmuniy doirasiga bir necha fe'lni oladi: "Ulusni ayladi adl birla masrur... Muborakbodliq va tahniyatgo'ylik lavozimin taqdimig'a etkurdilar. Va ixlos ilkin ko'tarib, e'tiqod bila mundoq duo va olqish zumrasin falak avjiddin oshurdilar... (19-bet)

sa'y-yu ehtimom ko'rguzmoq: ul mufsidlarni asiru dastgir qilmoqda sa'y-yu ehtimom ko'rguzgaylar – jiddu jahd qilmoq, tirishmoq ma'nosida.

Qo'zg'almoq: Qo'zg'alib har sori makinu makon – harakatga kelmoq, jonlanmoq. Bu erda sodda fe'l bo'lsa ham, harakatga kirguzish ma'nosidagi qo'shma fe'llarga ma'naviy jihatdan yaqin.

harakatga kirguzmoq. Bu fe'lning qurshov diorasini quyidagi parcha oqrali ham bilsa bo'ladi: "hamul voqeayi hoyila kayfiyatin arzg'a etkurib tiladilarkim, ul hazratni otlanturub arkg'a olib borg'aylar va qadami yumni bila ish boshqarib xilofat taxtig'a chiqarg'aylar. Ammo ul hazratning hamiyati andoq oliy erdikim, bu muhaqqar jahonning xilofat taxtig'a izzatlig' oyoqin etkurgay va bu muhaqqar jahonning saltanati tojig'a davlatlig' boshin indurgay. Lojaram, Vaysniyozboy va Muhammad Murod mahramning iltimosu iltijosidin ibovu imtino' qilib, ul amri xatirdin ihtiroz va isti'bod ko'rguzdi va bu abyot bila fasihbayon tilin harakatga kirguzdikim",... – boshlamoq, faollashmoq ma'nosida. (13-bet)

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, qilmoq, etmoq, aylamoq fe'llari turli arabcha yoki forsha otlar bilan birikib, o'zbek tilidagi harakat-holatni ifodalovchi qo'shma fe'llar hosil qilgan va ular orasida ma'noviy yaqinlik mavjud. Masalan, sa'y etmoq va sa'y-yu ehtimom ko'rguzmoq harakat qilish, intilish ma'nosini bersa, hazar qilmoq saqlanmoq ma'nosida sinonim. Tamanno aylamoq va tilamoq ham yaqin ma'noli.

2. *Bo'lmoq* komponentli qo'shma fe'llar sinonimiyasi.

ma'ruf va makshuf bo'l-: arbobi fatonat va ashobi diroyatning zamoiri zibasoir va xavotiri bayzonazoirig'a ma'ruf va makshuf bo'lsunkim... – ma'lum bo'lsin, ochiq'lansin ma'nosida. (5-bet)

namoyon bo'l-: zuhur sohilida namoyon bo'lur; vujud bozorida ayon bo'lur – ko'rinmoq, zohir bo'lmoq ma'nosida. (4-bet)

giriftor bo'l- Chun jame'i mufsidlar o'z amallari jazosig'a giriftor va barcha tog'iylar o'z kirdikorlari shumliqig'a duchor bo'ldilar... – uchramoq, yo'liqmoq ma'nosida. (53-bet)

duchor bo'l- duchor bo'ldilar, giriftor bo'lmoq bilan sinonim. (218-bet)

mustag'raq bo'l-: o'zlarin olti jihatdin daryoyi ofat va to'foni mahofatg'a mustag'raq ko'rdilar – g'arq bo'lmoq, cho'kib ketmoq ma'nosida. (45-bet)

mafhum va jilvapaymo bo'l-: ma'lumu huvaydo va mafhumu jilvapaymo bo'lsunkim – tushunilsin, zohir bo'lsin ma'nosida. Bu ham *ma'ruf va makshuf bo'lmoq* fe'lga yaqin. (9-bet)

Bo'lmoq fe'li, asosan, arabcha sifatlar bilan birikib, passiv yoki holat ma'nosini beruvchi qo'shma fe'llar yasagan va bu fe'llar orasida ham sinonimiya kuzatilgan. *Ma'ruf va makshuf bo'lmoq, namoyon bo'lmoq, ayon bo'lmoq, mafhum va jilvapaymo bo'lmoq* kabilar ko'rinmoq, zohir bo'lmoq, ma'lum bo'lmoq kabi yaqin ma'nolarni ifodalaydi.

3. *Ko'rmoq/ko'rguzmoq* komponentli qo'shma fe'llar sinonimiyasi.

mayl ko'rguz : ilmu fazl tahsilig'a mayl ko'rguzdi – istak bildirmoq, moyillik ko'rsatmoq. (9-bet)

e'tirof ko'rguz: o'z qusurig'a e'tirof ko'rguzub – tan olmoq, e'tirof etmoq. (34-bet)

qiyom ko'rguzib: sipohiygarlik qavoidi taqdimig'a qiyom ko'rguzib – turmoq, kirishmoq, tayyorgarlik ko'rsatmoq. (56-bet)

isti'bod ko'rguz: ul amri xatirdin ihtiroz va isti'bod ko'rguzdi – uzoqlashish, chetlanish ma'nosini bildiradi. (35-bet)

izdihom ko'rguz : ark oldida ko'rguzub izdihom – to'planmoq, izdihom hosil qilmoq. (70-bet)

tazarru'guzorlig' va iztirobu beqarorlig' ko'rguz: nihoyatsiz tazarru'guzorlig' va g'oyatsiz iztirobu beqarorlig' ko'rguzub – yolvormoq, zorlanmoq, beqarorlikni namoyon qilmoq. (12-bet)

hujum ko'rguz : mufsidlarni qasdig'a hujum ko'rguzdilar – hujum qilmoq, bostirib kirmoq. (12-bet)

sa'y-yu ehtimom ko'rguz : ul mufsidlarni asiru dastgir qilmoqda sa'y-yu ehtimom ko'rguzgaylar – tirishqoqlik, g'ayrat ko'rsatmoq. (12-bet)

Ko'rmoq/ko'rguzmoq fe'li "bildirmoq, namoyon qilmoq, ko'rsatmoq" ma'nolarida turli otlar bilan kelib, sinonimik qatorlar hosil qilgan. *Mayl ko'rguzmoq va e'tirof ko'rguzmoq* kabilar ichki holatni bildirsa, *izdihom ko'rguzmoq, hujum ko'rguzmoq* kabilar tashqi harakatni ifodalaydi.

4. *Tuzmoq/boshlamoq* komponentli qo'shma fe'llar sinonimiyasi.

dastur tuz: kamoyanbag'iy sa'y-yu ko'shish marosimin tuzdi – amalga oshirdi, bajardi. (9-bet)

marosim tuz: muborakbodlig' va tahniyatgo'ylik marosimin tuzub – rasmiyatchilikni ado etmoq, tadbir o'tkazmoq. (9-bet)

tarannum tuz: bu masnaviy mazmuni bila tarannum tuzdilarkim – kuylamoq, madh etmoq. (13-bet)

ish boshqar: va qadami yumni bila ish boshqarib xilofat taxtig'a chiqarg'aylar – rahbarlik qilmoq, ishni yuritmoq. Garchi bu guruhdagi misollar nisbatan kam bo'lsa-da, marosim tuzmoq va dastur tuzmoq kabi birikmalarda amalga oshirish, tashkil etish ma'nolari yaqin. *Tarannum tuzmoq* esa bastalamoq, ijod qilmoq ma'nosiga ega.

5. *Bermoq/yetkuzmoq/olib bermoq* komponentli qo'shma fe'llar sinonimiyasi.

dast ber: ahli islom lashkariga quvvati azim dast berdi – nasib qildi, hosil bo'ldi.

yetkur: shikasta xotirimg'a burung'i ayyomdin yuz ming daraja ziyodaroq masarrat va shodkomliq yetkurdi – yetkazmoq, bermoq.

arzg'a yetkur: hamul voqeayi hoyila kayfiyatin arzg'a yetkurib – bayon qilmoq, yetkazmoq. (24-bet)

tazalzul yetkur: dahlizning daru devorig'a tazalzul yetkurub – yetkazmoq, paydo qilmoq. (16-bet)

ravshan qil: Bir necha qodirandoz guruh yuqoridin miltuq va shaxmol otib, otashin go'lulalarning atrofu javonibdin mutavotir va mutavvoli nuzulidin "Va ja'alnāhā rujyāman li-sh-shayātūn" mazmunin olam ahlig'a ravshan qildilar – ko'rsatmoq, ayon qilmoq. (16-bet)

olib bor-: ul hazratni otlanturub arkg'a olib borg'aylar – olib bermoq. (23-bet)

Bermoq va *yetkurmoq* fe'llari ayrim kontekstlarda nasib qilish, ato etmoq ma'nolarida yaqinlashadi. *Yetkurmoq* esa ko'proq yetkazish, bayon qilish, yetkazmoq ma'nolarida qo'llangan.

6. *Boshqa* sinonimik munosabatlar. Matnda alohida fe'llar bilan birikkan, lekin ma'nosi yaqin bo'lgan boshqa qo'shma fe'llar ham mavjud:

yuz qo'y-: Jahon ahli qo'yub yuz shodliqg'a – intilmoq, yuzlanmoq.

maqom qil-: qamoti izzat va mahdi davlatni maqom qildi – joylashmoq, egallamoq.

orom tut-: devonxonayi saodatnishona sadrida tamkini tamom va oyini sharofatanjom bila orom tutti – joylashmoq, o'rnatmoq.

kamol top-: izzat avjida kamolg'a etkan – rivojlanmoq, mukammallashtirmoq.

hosil qil-: fazlu hunar anvoyin hosil qildikim – egallamoq, o'zlashtirmoq.

Ogahiyning tarixiy nasrida qo'shma fe'llar sinonimiyasi bir nechta uslubiy vazifani bajargan: 1. Ma'noning turlicha nozikliklarini ifodalash: to'liq sinonimlar qatorida qisman sinonimlar ham uchraydi. Ular kontekstga qarab harakatning turli jihatlarini (boshlanishi, davomiyligi, natijasi, intensivligi kabi) ifodalash uchun xizmat qilgan. 2. Nuqtning rang-barangligini ta'minlash: bir ma'noni turli qo'shma fe'llar bilan ifodalash matnning bir xillikdan qochishiga, ifodaning jozibali va ravon bo'lishiga yordam bergan. 3. Ritm va ohangni saqlash: ayniqsa, saj (qofiyali nasr) qo'llangan o'rinlarda sinonimlar ritmik tuzilishni saqlash va kuchaytirish uchun ashyoviy material vazifasini o'tagan. 4. Ta'sirchanlikni oshirish: ba'zida sinonimlar ketma-ket yoki yaqin joylashgan holda kelib, ifodalanayotgan fikr yoki holatning ta'sirchanligini, kuchini oshirgan (masalan, *jafo-yu javr, mubtahij va masrur, ma'ruf va makshuf, tazarru'guzorlig' va iztirobu beqarorlig'* kabi).

Ogahiyning tarixiy asaridan keltirilgan ushbu parcha qo'shma fe'llarning muallif tilida qanchalik faol qo'llanganini va ularning boy sinonimik munosabatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. *Qilmoq, etmoq, aylamoq, bo'lmoq, ko'rmoq/ko'rguzmoq, tuzmoq, bermoq, etkurmoq, topmoq* kabi fe'llar komponentligida shakllangan qo'shma fe'llar matnda turli ma'noviy va uslubiy vazifalarni bajargan. Bu holat Yuldoshev tomonidan ta'kidlangan qo'shma fe'llarning stilistik yuklamasiga mos keladi. [4; 112-bet]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xullas, ushbu parcha misolidagi tahlil Ogahiy nasri tilining boyligi, uning so'z tanlash va ifodalashdagi mahoratidan dalolat beradi. Qo'shma fe'llar sinonimiyasi muallifga fikrni aniq, rang-barang va ta'sirchan ifodalash imkonini bergan. Ogahiyning bu kabi lingvistik xususiyatlarini chuqur o'rganish uning ijodiy uslubini, o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini va o'sha davr til me'yorlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ogahiyning barcha tarixiy asarlaridagi qo'shma

fe'llar sinonimiyasini keng qamrovli tahlil qilish kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim vazifalardan biridir. Shunday qilib, Ogahiyning asarlaridagi qo'shma fe'llar sinonimiyasi uning ijodiy uslubini yanada kengroq tushunishga yordam beradi. Bu tadqiqot o'zbek adabiy tilining tarixiy rivojiga va uning uslubiy xususiyatlariga yanada chuqur nazar tashlash imkonini beradi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 6- jild. Nashrga tayyorlovchi, izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni filologiya fanlari doktori Abdulla O'rozboyev. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019. – 262 b.
2. Begmatov E. O'zbek tilida qo'shma fe'llarning tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari. – Toshkent: O'zbekiston FA, 1997. – 150 b.
3. Madvaliev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2000. – 220 b.
4. Yuldoshev X. O'zbek adabiy tili sintaksisi. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 256 b.
5. Madvaliev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2000. – 220 b.
6. Jo'rayev A. O'zbek tilining stilistikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – 180 b.
7. Shukurov S. Matn sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 192 b.
8. Karimov M. Qo'shma fe'llarning semantik tahlili. – Buxoro, 2012. – 98 b.
9. Nishonov B. Til birliklarining kontekstual tahlili. – Toshkent: Fan, 2016. – 140 b.
10. Norqulov D. Tarixiy matnlar lingvistikasi. – Samarqand, 2013. – 170 b.
11. G'ulomov A. O'zbek nasriy matnlarida fe'l kategoriyasi. – Toshkent: Fan, 1995. – 130 b.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000